

Uzbekistan Airways'dan talabalar uchun chegirmalar

2023 5 Dekabr

Qishki ta'til arafasida o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari talaba-o'quvchilari uchun mahaliy yo'nalishlar aviachiptalari tarifidan 50% chegirma e'lon qilamiz. Chegirma 2023-yil 23-dekabrdan boshlab 2024-yil 7-yanvariga qadar amalga oshiriladigan aviaqatnovlar uchun amal qiladi.

Aviachiptani 50% chegirma bilan hoziroq aviakompaniya agentlaridan va Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilishingiz mumkin.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Chegirmalar 2023-yil 23-dekabridan 2024-yil 7-yanvarigacha amalga oshiriladigan ichki reyslarga taaluqlidir.
2. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
3. Aviachipta xarid qilayotganda talabalar MyGov.uz orqali olingan yoki ta'lim muassasasidan berilgan ularning o'qishi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim qilishlari kerak;
4. Chegirmali aviachiptalarni sotish "Uzbekistan Airways" Ajning Uzbekistan Airways Sales filialida va filialning O'zbekiston Respublikasi hududidagi savdo agentlarida amalga oshiriladi;
5. Chegirma bilan sotish 2023-yil 4-dekabridan 2024-yil 7-yanvarigacha ruxsat berilgan;
6. Chegirmali aviachiptalarni rasmiy saytda sotib olib bo'lmaydi;
7. "L", "U", "S", "O", "V" klasslari, biznes-klass tariflari, shuningdek "Uzbekistan Helicopters" MChJ reyslari uchun chegirma taqdim etilmaydi;
8. Agar sanalardan biri chegirma muddatiga to'g'ri kelmasa, parvoz turli aviachiptalar yordamida rasmiylashtirilishi kerak.
9. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Qisman foydalanilgan

- aviachipta uchun to'lovnı qaytarish summasini hisoblash uchun chegirma qo'llanilmagan holda ishlatalgan segment uchun yo'l haqi yechib olinadi;
10. Foydalanimayotgan yoki qisman foydalanimagan aviachipta qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, agar jo'nab ketish sanalaridan biri chegirma muddatiga to'g'ri kelmasa, chegirma qo'llanilmaydi va chegirmasiz qayta rasmiylashtiriladi.